

HAYOTNING DAVOMIYLIGI TABIAT BILAN UYG'UNLIKDA

Baratova Parizod

Qarshi shahar 15-maktab 11-A sinf o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21507772>

Tabiat shunday bag'ri keng, sahovatli va himmatliki, u o'ziga nisbatan qilingan har qanday shafqatsizlikni, hurmatsizlikni bag'rida saqlab kelmoqda. Lekin, unga nisbatan bo'lgan bu nohaqliklarga javoban tabiatning o'ch olishi muqarrardir. Chunki, bugungi kunda bunday munosabatlarning ta'siri yangicha ekologik muammolar ko'rinishida insonlar hayotiga va butun tiriklik dunyosi hayotiga tahlika solmoqda. Jumladan, havo haroratining ko'tarilishi, ozon qatlamining siyraklashuvi, toza suv tanqisligi, dunyo okeanining ifloslanishi, cho'llashish jarayoni, tuproq eroziyasi, tabiiy boyliklarning kamayib borishi va boshqa sabablar oqibatida iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy muammolar kelib chiqmoqda. Ayniqsa, joriy yilda sayyoramizning ko'pgina mamlakatlarida suv toshqinlari, to'fonlar, o'rmonlarga o't ketishi kabi salbiy holatlar ko'p kuzatilmoqda. Ayni kunda tabiat yaratgan jamiki jonzot toza havoga, zilol suvlarga, mehr-shafqatga muhtoj bo'lib qoldi.

Inson yer yuzida paydo bo'lganidan boshlab tabiat bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanib kelmoqda. Tabiat unga hayot uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar manbai bo'lib xizmat qiladi. Tabiatning rivoji tufayligina hayot, inson va jamiyatning paydo bo'lish imkoniyati tug'ildi. Tabiat va uning sof komponentlarisiz inson yashay olmaydi, shunday ekan, insoniyat tabiatni e'zozlashga majbur va ma'suldir. Tabiat qonunlariga amal qilingan holda ish yuritilsa, u boyliklarini insonga tuhfa etaveradi.

XX asrning ikkinchi yarmida texnika va kimyo sanoatining taraqqiyoti tufayli, insoniyatning ona tabiatga ta'sir doirasi shunchalik kuchaydiki, natijada Yerdagi hayotning davomiyligiga xavf tug'ildi. Fan-texnika taraqqiyoti davrida insonning tabiatga ta'siri bir necha barobarga ortdi. Chunki rivojlanish to'xtamaydi, u olg'a intilaveradi. Inson esa tabiatga ta'sir ko'rsatishi bilan birga o'zi ham tabiat qo'ynida kamol topib boraveradi. Shu bois, hozirgi davrda tabiat muhofazasi g'oyatda ma'suliyatli vazifaga aylangan va XXI asr sayyoramizning ekologik taqdiri uzil-kesil hal bo'ladigan «ekologiya asri» deb bejiz aytilmaydi.

Atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko'p jihatdan insonlarning ekologik savodxonlik darajasi, ekologik madaniyatiga bog'liq. Bu esa, jamiyatni rivojlantirish, insonlar hayotini farovonlashtirish, tabiat boyligi va go'zalligini asrab-avaylash vazifalari bilan uyg'unlashadi.

El sog'ligi-yurt boyligidir. Insonning sog'lom hayot kechirishi va mehnat qilishi uchun esa toza havo, toza suv, toza oziq-ovqat va toza tashqi tabiiy muhit zarur. Ana shular mukammal qaror topgan joyda sog'lom turmush tarziga erishiladi. Yer kurrasini qamrab olgan va eng xavfli global darajadagi ekologik muammoalarga aylangan dunyo issiqxonasi, ozon tuynuklari, chuchuk suv muammosi, o'simlik va hayvon turlarining yo'qolishi hamda aholi sonining yil sayin ortib borishi, ekologik toza oziq-ovqatning yetishmasligi, ocharchilikning va turli ekologik kasalliklarning kelib chiqishi kabi muammolarning oldini olish uchun esa zudlik bilan chora-tadbirlarni ko'rish lozimligini davr taqoza etmoqda. Aks holda, yer yuzidagi jamiki insoniyat hayotida o'nlab bo'lmas darajadagi salbiy holatlar kelib chiqadi. Binobarin, sayyoramizdagi 8 milliarddan ortiq aholining 1 milliard och va yarim och holda yashaydi, 2 mlrd aholi toza ichimlik suvidan mahrum, ochlik va turli kasalliklar natijasida esa dunyo bo'yicha har 5 soniyada bitta bola halok bo'layapti. Bugungi kunda sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar va

ular natijasida kelib chiqadigan kasalliklar bir tomondan tabiiy omillar (sunami, magnit bo'ronlari, quyosh) ta'sirida sodir bo'layotgan bo'lsa, ikkinchidan antropogen omillar ta'sirida bo'lmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun aholining barcha qatlamlarida ekologik bilim, dunyoqarash, madaniyatni shakllantirish nihoyatda zarur. Chunki tabiat sir-sinoatlarini to'liq tushungan insongina tabiatdagi muvozanatni saqlay oladi. Har bir madaniyatli inson bu muammolarni bartaraf etish uchun kurashsa, jamiyatda haqiqiy ekologik madaniyat kishisi shakllanadi.

Ayni kunda mavjud bo'lgan mahalliy, mintaqaviy va umumsayyoraviy ahamiyatga ega ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va hal etish yo'llarini yechimini topish uchun, biz yoshlar:

- tabiat insonning tiriklik manbai ekanligini anglagan bo'lishlari;
- inson tabiatning ajralmas bo'lagi ekanligini his etishlari;
- insoniyat bilan atrof muhitning yagona munosabatga ega ekanligini bilishlari;
- tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlikda ekanligini tushunib yetishlari;
- tabiat qonuniyatlarini juda chuqur o'rgangan va anglagan bo'lishlari;
- ilmiy ekologik bilimlarni mukammal o'zlashtirgan bo'lishlari;
- barcha jonzoatlarning yashab qolishlari uchun tabiat unsurlariga salbiy zarar yetkazmasliklari va tabiiy holda saqlab qolishlari;
- tabiat-inson-jamiyat o'rtasidagi muvozanatning doimiylikiga erishishlari lozim.

Yuqoridagi asosiy vazifalarni amalga oshirgandagina inson bilan tabiat o'rtasida uyg'unlik abadiy bo'ladi. Aks holda yuzaga kelgan xavfli ekologik muammolar borgan sari keskinlashib, insonlar hayotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ekologik muvozanatning buzilishi sayyoramizda hayot jarayonlarining maromida borishini qiyinlashtiradi, u o'z navbatida yer yuzidagi barcha mavjudotlarning, shu jumladan insonning hayot faoliyatini susaytiradi.

Kelajak yoshlar qo'lida ekan, tabiatni butunligicha asrash, uni kelgusi avlodlarga qadimgi ajdodlarimiz asragandek yetkazish insonlar oldida turgan yuksak vazifalardan ekanligini yosh avlod qalbiga singdirish zarur. Ilgari har bir qishloqning o'z bog'lari, yaylovlari, insonlarga rizq-roz beradigan hosil yerlari bolgani bizga ma'lum. Bugungi yoshlar bunday qulayliklardan bahramand emaslar, qolaversa borini ham saqlab qolish imkoniyati xavf ostidadir. Ushbu muammolarni hal etish uchun esa yosh avlod o'rtasida ekologik ta'lim-tarbiyani shunday yo'lga qo'yish kerakki, yoshlar ongiga tabiatni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilona foydalanish, ekologiya haqidagi bilimlar mazmuni, uzviy va uzluksiz ravishda ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich singdirib borilishi lozim.

Inson hayoti biosferaga bog'liq ekan, uning muvozanatiga, ekologik jihatdan sog'lom bo'lishiga harakat qilishimiz va insoniyat yashab turgan muhitni barqaror vaziyatda asrashga erishishimiz lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.